

## **INSONNING TABIATGA TA'SIRI**

*Parpiyeva Chinora Olimjon qizi*

*(Farg'ona viloyat Agroxizmatlar markazi)*

*Zulfiyeva Dilshodaxon Muxitdin qizi*

*(Farg'ona viloyat Agroxizmatlar markazi Laboratoriya mudiri)*

Atrofimizni o'rab turgan butun mavjudot tabiatni tashkil etadi. Suv,xavo,tuproq, tog'u toshlar, o'simliklar xayvonlar, barcha-barchasi.....

Insonlar ham tabiatni bir qismi xisoblanadi.

Hammamizga ma'lumki, inson doim yaxshi yashashi uchun qulay sharoit yaratishga xarakat qilib yashaydi, ko'plab noo'rin xarakatlar qiladi. Natijada atrof-muhitga zarar yetadi, o'simliklar qushlar xayvonlar hatto insonlar ham nobud bo'ladi.

Ayrim insonlar dam olish, ko'ngil ochish maqsadida yashil maskanlarga borganida, ayniqsa, "Sayoramiz o'pkasi" deb ta'riflanayotgan o'rmonlarga borganida turli chiqindilar qoldirib atrof-muhitni ifloslantirmoqda, olov yoqishib, dala o'rmorn yong'inlarini kelib chiqishiga sababchi bo'lmoqda.

Keling, uzoqqa bormaylik, siz-u biz istiqomat qilayotgan shahar-u qishloqlarda ham achinarli holatga duch kelamiz. Ariqlarda oqayotgan oqin suvlarga e'tibor bering. Oqib kelayotgan suv ichida hamma narsani topish mumkin. Yelim idishlar, shishalar, va hakazo....

Ota-onalarimizning aytishlariga qaraganda, ularning bolalik chog'larida ariqlarda toza, zilol suvlar qilib, bolalar "non qizoq" qilib yeyishar ekan. Shuningdek, ariq suvlaridan istemol qilishgan ekan. Shunday bo'lsa ham bugungiday kasalik ko'paymagan ekan. Buning boisi atrof-muhitning tozaligi, musaffoligi emasmi.

Bugun-chi Bugun ariq suvlarni ichish emas, og'iz chayish, yuz-qul yuvish uchun ham o'ylanisiz.

Afsuski, ayrim, ayrim emas ko'p qishloqlarda ichimlik suv yetib bormay, ariqlardan suv ichayotgan yoki ichimlik suvini suv mashinalaridan pulga sotib olayotgan aholi ham bor. Ular ifloslangan ariq suvini iste'mol qilishga majburlar. Balki shu sababmikan yuqimli kasalliklar bugungi kunda keng tarqaldi. Lekin shuni aytish joizki, atrof-muhitni toza saqlash, kasalliklarni bartaraf etish, muommolarini hal etish barchamizning asosiy vazifamizga aylanmog'i zarur. Ariqlarni tozalash, suvni ifloslantirmaslik, daraxtlarni kesmaslik, noyob o'simliklarni nobud qilmaslik, yashab turgan maskanimizni obod qilishimiz burchimizga aylanishi zarur. Men istardimki, har birimiz jonbozlik ko'rsatab yashil makonlar barpo etishda yil davomida ma'sulyatli bo'lsak, vijdonan ishlasak, o'z uyimiz, o'z qishlog'imizni obod bo'lishi uchun birgalikda harakat qilsakgina buyuk maqsadlarga erishamiz . Yangi O'zbekistonning faqat markaziy shaharlarga emas, balki chekka qishloqlari ham e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Yashab turgan maskanimizni obod bo'lishi, xalqning salomatligi, farovonligi, o'zimizga bog'liq deb o'ylayman. Demak, insonlar tabiatga, atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatganligi uchun ham shunday muammolar kelib chiqmoqda. Men xalqimizga keksayu-yoshlarga aytmoqchimanki, siz bir tup daraxt kesangiz, o'rniga o'n tub ko'chat eking, ariqlarini tozalang, suvni ifloslanishiga aslo yo'l qo'ymang. Ariq bo'ylariga, hovli oldiga anvoiy gullar eking, xasharlar uyushtiring, ahilik, birdamlik bilan muammolarni bartaraf eting.

Prezidentimiz taklifi bilan 2024 yilni "Yoshlar va biznesni kullab-kuvatlash" yili deb belgiladi. Yurtboshimiz xalq farovonligi, yurt obodligi uchun yonib kuyayotgan bir payitda, Aziz yoshlar, bizning loqayt turishimiz to'g'ri emas. Kelinglar yoshlar, Prezidentimiz tashabusini o'z bilimimiz, iqtidorimiz va mehnatimiz bilan qo'llab quvatlaylik.

Ey! Odamlar tabiatga aslo zarar yetkazmang, uning musoffoligini go'zaligini, tabiiligini saqlab qolinglar.

Zero, bu bizning nafaqat biz, balkiy, farzandlarimiz, kelajak avlod xayoti kafolatidir.